



# JIZZAX VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot*  
*2023- yil yanvar-sentabr*






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **8064** tani tashkil etib, Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **58** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **8006** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-sentabr oyida chakana savdo tovar aylanmasi **5732,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **104,7** % ni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **420,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **133,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5312,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,9** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1455,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **100,9** %) tashkil etdi.


	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>5732,7</b>	<b>104,7</b>	<b>420,2</b>	<b>133,2</b>	<b>5312,5</b>	<b>102,9</b>
Jizzax sh	1341,6	105,9	152,3	90,5	1189,3	108,2
<i>tumanlar :</i>	-	-	-	-	-	-
Arnasoy	130,5	79,5	1,4	81,1	129,1	79,4
Baxmal	632,3	101,3	3,0	99,3	629,3	101,4
G'allaorol	571,5	105,9	21,1	101,2	550,4	106,0
Sh Rashidov	657,3	101,4	6,7	110,9	650,6	101,4
Do'stlik	279,8	104	1,6	27,1	278,2	105,8
Zomin	663,5	102,2	110,7	115,6	552,8	99,9
Zarbdor	325,0	103	1,6	90,1	323,4	103,0
Mirzacho'l	199,8	102,8	1,1	83,6	198,7	103,0
Zafarobod	126,0	102,5	1,2	76,2	124,8	102,9
Paxtakor	442,9	133,3	117,1	18,4 m.	325,8	100,0
Forish	282,5	103,9	1,6	91,2	280,9	104,0
Yangiobod	80,0	102,7	0,8	75,5	79,2	103,0

2023- yilning yanvar-sentabr oyida 2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan viloyatning Paxtakor (**133,3** %), G'allaorol (**105,9** %), Jizzax sh (**105,9** %) va Do'stlik (**104,0** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5312,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022–yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **102,9** % ni tashkil etdi. Jizzax viloyat miqosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,7** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **33,2** % ga o'sdi va **420,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,3** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar    ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Baxmal (**99,5 %**), Zarbdor (**99,5 %**) va Forish (**99,4 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **7,2 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Paxtakor (**26,4 %**), Zomin (**16,7 %**) va Jizzax shahri (**11,4%**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	3853,4	102,4
Jizzax sh	6940,3	103,3
<i>tumanlar :</i>		
Arnasoy	2701,9	78,3
Baxmal	3759,1	99,1
G'allaorol	3099,1	103,6
Sh Rashidov	2747,9	98,8
Do'stlik	4038,2	102,2
Zomin	3753	99,8
Zarbdor	3479,7	100,5
Mirzacho'l	3646,3	101,1
Zafarobod	2376,9	100,5
Paxtakor	5543,6	130,3
Forish	2897,7	102,2
Yangiobod	2701	101,3


2023-yilning yanvar-sentabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 853,4** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **102,4** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni tumanlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (**6 940,3** ming. so'm), Paxtakor (**5 543,6** ming. so'm) va Do'stlik (**4 038,2** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Jizzax viloyati bo'yicha 2023-yilning yanvar-sentabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 455,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **100,9** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor(dehqon) va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **691,5** mlrd. so'mni (**103,1%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **763,6** mlrd so'mni tashkil etdi (**69,1** %).

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.














## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1455,1</b>	<b>100,9</b>	<b>691,5</b>	<b>103,1</b>	<b>763,6</b>	<b>69,1</b>
Jizzax sh	285,5	109,9	285,5	144,0	-	-
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	1,4	3,4	1,4	22,6	-	-
Baxmal	232,8	102	127,2	87,6	105,6	87,0
G'allaorol	170,9	109,7	56,2	108,7	114,7	61,8
Sh Rashidov	141,3	98,7	-	-	141,3	124,4
Do'stlik	73,2	104	18,1	51,0	55,1	56,1
Zomin	200,7	103,7	90,6	98,8	110,1	76,2
Zarbdor	120,9	95	33,7	46,9	87,2	61,9
Mirzacho'l	58,8	102	12,3	82,6	46,5	64,5
Zafarobod	-	-	-	-	-	-
Paxtakor	80,4	95,5	28,5	67,9	51,9	58,4
Forish	66,1	110,6	25,0	235,8	41,1	61,6
Yangiobod	23,1	106,2	2,9	111,5	20,2	85,2

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning sentabr oyida viloyatning barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **75,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**25,3** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>25,3</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>10,5</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>7,2</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>3,8</b>
	<b>Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	<b>2,7</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>2,6</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>4,7</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b>	<b>10,1</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>4,9</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>1,2</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>0,2</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>3,0</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning sentabr oyida, viloyatning barcha tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **67,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **44,8** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **20,4** mlrd. so‘mni, otlar – **1,6** mlrd. so‘mni, parrandalar – **0,3** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrd. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	22,9
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	12,0
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	9,9
	Qo‘ylar	17,3
	Otlar	1,6
	Echkilar	3,1
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,2
	Tovuqlar	0,1
	Quyionlar	0,0
	Qushlar	0,0

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI




2023- yilning yanvar-sentabr oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **214,4** mlrd. soʻmga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,5** % ni tashkil qildi. Bunda savdo aylanmasining **97,3** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri keldi.

	Jami mlrd. soʻm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. soʻm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda	Xususiy tadbirkorlik subyektlari, mlrd. soʻm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>214,4</b>	<b>106,5</b>	<b>208,6</b>	<b>106,6</b>	<b>5,8</b>	<b>103,7</b>
Jizzax sh	83,2	104,5	81,9	104,5	1,3	103,8
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	0,8	105,1	0,6	106,6	0,2	100,7
Baxmal	12,3	104,5	11,7	104,7	0,6	99,9
Gʻallaorol	15,9	113,9	15,4	114,3	0,5	103,2
Sh Rashidov	50,9	109,2	50,1	109,3	0,8	104,1
Doʻstlik	5,1	111	4,8	111,4	0,3	105,4
Zomin	14,1	105	13,5	105	0,6	106,5
Zarbdor	7,4	106,6	7,1	106,6	0,3	105,5
Mirzachoʻl	2,4	106,7	2,1	106,6	0,3	107,9
Zafarobod	1,7	94,1	1,5	93,3	0,2	100,3
Paxtakor	7,2	103,5	6,9	103,5	0,3	105,3
Forish	11,4	108,4	11,1	108,6	0,3	100,6
Yangiobod	2,0	96,3	1,9	95,9	0,1	105,2

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1-oktabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **4 549,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **143,2 %** ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 237,7** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **125,9 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi **3 316,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **150,6 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>4549,0</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh	850,8	18,7
<i>tumanlar :</i>	0,0	
Arnasoy	2,5	0,1
Baxmal	2098,8	46,1
G'allaorol	106,9	2,3
Sh Rashidov	1207,8	26,6
Do'stlik	2,3	0,1
Zomin	260,7	5,7
Zarbdor	0,0	0
Mirzacho'l	0,1	0
Zafarobod	0,0	0
Paxtakor	0,8	0
Forish	15,1	0,3
Yangiobod	3,2	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Baxmal tumani (**2 098,8** mlrd. so'm), Sh.Rashidov tumani (**1 207,8** mlrd. so'm) va Jizzax shahri (**850,8** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 473,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **104,7 %** ni tashkil etdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **2 279,0** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **116,3 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **92,1 %** ni tashkil qildi.

# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



2023-yilning yanvar-sentabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2473,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **104,7** % ni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **194,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **48,3** %), kichik biznes va mikrofirmalarining tovar aylanmasi **2279,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **116,3** %) tashkil etdi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2473,4</b>	<b>104,7</b>	<b>194,4</b>	<b>48,3</b>	<b>2279,0</b>	<b>116,3</b>
Jizzax sh	1482,1	120,2	65,0	50,3	1417,1	128,4
<i>tumanlar :</i>	0,0		0,0		0,0	
Arnasoy	7,5	103,5	0,0	90,8	7,5	103,6
Baxmal	124,9	76,7	115,5	91,7	9,4	25,4
G'allaorol	38,8	111,3	0,2	95,6	38,6	111,4
Sh Rashidov	230,0	102,7	0,2	62,5	229,8	102,8
Do'stlik	70,6	54,6	12,7	17,1	57,9	104,9
Zomin	331,0	104	0,0	61,7	331,0	104
Zarbdor	87,8	102,5	0,0	92,6	87,8	102,5
Mirzacho'l	47,2	103,3	0,1	103,2	47,1	103,3
Zafarobod	17,1	105,8	0,1	323,4	17,0	105,6
Paxtakor	9,2	11,3	0,2	0,3	9,0	103,8
Forish	17,6	107,6	0,3	70,4	17,3	108,4
Yangiobod	9,6	112,5	0,1	199	9,5	112,1





**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 72-221-51-26**